

**“KELISHILDI”**

**O‘zbekiston Yengil atletika  
federatsiyasi  
bosh kotibi**



**K.Ruzamukhamedov**

“ ” \_\_\_\_\_ **2025-yil**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sport vazirining  
o‘rinbosari**



**Sh. Maxmudov**

“ ” \_\_\_\_\_ **2025-yil**

**Yengil atletika sport turi bo‘yicha 2025-yilda  
O‘zbekiston chempionati va O‘zbekiston kubogi  
musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risida**

**N I Z O M**

**Toshkent 2025-yil**

# Yengil atletika bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini o'tkazish to'g'risida N I Z O M

**Yengil atletika** bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini o'tkazish to'g'risida Nizom (bundan buyon matnda **Nizom** deb yuritiladi) yengil atletika sport turi bo'yicha O'zbekiston chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarining (bundan buyon matnda **Respublika musobaqalari** deb yuritiladi) maqsadi va asosiy vazifalari, Respublika musobaqalarini tashkil etish va boshqarish, ularni o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, g'olib va sovrindorlarini taqdirlash, shuningdek, sport terma jamoalarini shakllantirish va ular faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Respublika musobaqalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkazilgan to'rt bosqichli jumladan, tuman (shahar) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida o'tkazilgan viloyat (hududiy) saralash hududiy musobaqalarda (bundan buyon matnda **hududiy musobaqalar** deb yuritiladi) g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar Respublika musobaqalarida qatnashish (ishtirok etish) huquqini qo'lga kiritadilar.

2. Ushbu Nizom yengil atletika sport turi bo'yicha Respublika musobaqalarini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiruvchi O'zbekiston yengil atletika federatsiyasining hududiy bo'linmalari (bundan buyon matnda federatsiyaning **hududiy bo'linmalari** deb yuritiladi) uchun majburiy hisoblanadi.

3. Respublika va hududiy musobaqalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-268-son** qarori va 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-5924-son** farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi "Sport terma jamoalari to'g'risidagi nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi **173-son** qarori va 2014-yil 29-iyuldagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tadbirini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **205-son** qaror, 2011-yil 27-apreldagi "Terma jamoalar hamda ularning zaxirasini sport musobaqalariga tayyorlashni, shuningdek ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **121-son** qarori (bundan buyon matnda **qaror** deb yuritiladi) hamda O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining

(bundan buyon matnda **vazirlik** deb yuritiladi) buyruqlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

4. Respublika va hududiy musobaqalar Jahon yengil atletikasi tomonidan o'rnatilgan qoidalarga ko'ra o'tkaziladi va hakamlar tomonidan baholanadi.

Musobaqani o'tkazish uchun hakamlar tarkibi **vazirlik** tomonidan tasdiqlanadi.

5. Respublika musobaqalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning buyruqlari va majlis bayonlari hamda hay'at qarorlariga, shuningdek, mazkur Nizomga hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlariga amal qilinadi.

## **2-bob. Musobaqalarning o'tkazish maqsadi, vazifalari va tartibi**

6. Quyidagilar Respublika musobaqalarning asosiy maqsadlari va vazifalari hisoblanadi:

Respublika va hududiy musobaqalarning maqsadi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish natijasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yengil atletika sport turini aholi o'rtasida ommalashtirish va uni yanada rivojlantirish, Respublikada yengil atletika sport turi bo'yicha sportchilarning mahorati darajasini oshirish;

Respublika musobaqalarning vazifasi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari va sport tashkilotlarida turli yosh guruhlaridagi yengil atletika sport turi bo'yicha sportchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni saralab olish, O'zbekiston Respublikasi milliy terma jamoalari (bundan buyon matnda **terma jamoa** deb yuritiladi) va ularning zaxirasini shakllantirish, shuningdek yengil atletika sport turi bo'yicha kuchli sportchilarni aniqlash, trener va hakamlarning malakasini oshirish, o'tkaziladigan musobaqalar natijalarini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi nufuzini mustahkamlash uchun yengil atletika bo'yicha Respublika musobaqalari yakunlariga ko'ra yuqori natijalariga erishadigan eng kuchlilarni saralab olish (seleksiya qilish).

## **3-bob. Musobaqalarni o'tkazishga rahbarlik qilish**

7. Respublika musobaqalarini o'tkazishga umumiy rahbarlikni vazirlik tomonidan hamda bevosita rahbarlik qilish O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi (bundan buyon matnda **federatsiya** deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

8. Hakamlar hay'ati ro'yxati **federatsiya** tomonidan vazirlikka taqdim qilinib, tasdiqlanadi.

9. Respublika musobaqalarini adolatli va shaffof holda o'tkazilishi hakamlar hay'ati zimmasiga yuklatiladi.

10. Respublika musobaqalarida ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish, federatsiya tomonidan shakllantirilgan, musobaqa mandat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Respublika musobaqalari davrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tadbirini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 205-sonli qaroriga muvofiq, ishtirokchilar va tomoshabinlar xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish, tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishilgan holda federatsiya va uning hududiy bo'limlari (musobaqa qaysi hududda o'tkazilishiga qarab) tomonidan amalga oshiriladi.

12. Federatsiya va uning hududiy bo'limlari Respublika va hududiy musobaqalarni tashkil etish hamda ularni yuqori saviyada o'tkazishda vakolatli organdan ruxsatnoma olgan holda musobaqa qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlash borasida tegishli vakolatli organlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatadi;

#### **4-bob. Musobaqalarni o'tkazish joyi va muddati**

13. Respublika va hududiy musobaqalar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida amaldagi Xalqaro federatsiya qoidalari asosida o'tkaziladi.

14. Vazirlikning sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining **2025-yil** uchun respublika kalendar rejasiga asosan:

Yengil atletika bo'yicha Respublika musobaqalari ro'yxati mazkur Nizomning **1-ilovasiga**;

2025-yil davomida yengil atletika bo'yicha Respublika hududida o'tkazilishi rejalashtirilgan Respublika musobaqalari dasturi mazkur Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq amalga oshiriladi.

15. Mandat komissiyasi faoliyati musobaqa bo'lib o'tadigan joyda, musobaqaning birinchi kunidan o'z ishini belgilangan tartibda amalga oshiradi.

#### **5 bob. Musobaqalarni o'tkazish shartlari**

16. Respublika musobaqalari mazkur nizomning **3-bandida** qayd etilgan **qarorlarga** va vazirlikning buyrug'iga asosan yengil atletika sport turining xususiyatlaridan kelib chiqib, federatsiya tomonidan, xalqaro federatsiyaning tasdiqlangan norma va qoidalarda belgilangan **yosh toifalari** (bolalar va qizlar, kichik o'smirlar, o'smirlar, yoshlar, U-23 va kattalar) o'rtasida **yilda ikki marta** (bir marta ochiq inshootda va bir marta yopiq inshootda) **o'tkaziladi**.

17. Respublika musobaqalari tashkil etish va o'tkazishda vazirlikning buyrug'i bilan tasdiqlangan, musobaqaning bosh hakami (texnik delegat) zimmasiga yuklanadi.

18. Respublika musobaqalarda hakamlarining vazifalari Xalqaro federatsiya tomonidan tasdiqlangan reglament qoidalari va talablari, tartib va shartlariga asosan amalga oshiradi.

19. Respublika musobaqalarda hakamlar hay'atining soni mazkur Nizomning **3-ilovasiga** muvofiq belgilanadi.

20. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi talab etilgan hollarda federatsiya musobaqa boshlanishidan kamida **yigirma besh kun oldin** vazirlikni xabardor qiladi. Bunda, nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda asoslovchi hujjatlarni sifatli tayyorlab (xalqaro qoidalardan kelib chiqib, trenerlar kengashida atroflicha muhokama qilgan holda yig'ilish bayoni va hakamlar hay'ati qarorini) **vazirlikka** taqdim etadi.

21. Tasdiqlangan nizomning tegishli bandlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgandan so'ng, Respublika musobaqalari boshlanishidan **o'n besh kun** oldin federatsiyaning hududiy bo'linmalari va Respublika musobaqalari ishtirokchilariga tegishli hujjatlar (bilan tanishtiriladi) taqdim etiladi.

#### **6 bob. Musobaqalarda ishtirok etish uchun talabnoma (buyurtma)larni topshirish shartlari**

22. Respublika musobaqalariga yengil atletika sport turining xususiyatlaridan kelib chiqib, Xalqaro federatsiya qoidalari, normalari va talablari asosida talabnoma (buyurtma)larni taqdim etish shartlari mazkur nizomning **4-ilovasiga** muvofiq mandat komissiyasi tomonidan talab etiladi.

23. **O'zbekiston chempionati** quyidagi yosh toifalari bo'yicha o'tkaziladi:

kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-14) o'rtasida;

kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-16) o'rtasida;

o'smirlar (o'smirlar va o'smir qizlar) (U-18) o'rtasida;

yoshlar (yoshlar va qizlar) (U-20) o'rtasida;

yoshlar (yoshlar va qizlar) (U-23) (22 yosh va undan kichik) o'rtasida;

kattalar (erkak va ayollar) (16 yosh va undan kattalar) o'rtasida.

24. **O'zbekiston kubogi** quyidagi yosh toifalari bo'yicha o'tkaziladi:

yoshlar (yoshlar va qizlar) (U-23) o'rtasida;

kattalar (erkaklar va ayollar) (16 yosh va undan kattalar) o'rtasida.

25. Respublika musobaqalarida ishtirok etish uchun xalqaro qoidalardan kelib chiqib, sportchilardan quyidagi:

pasporti (asli ko'rsatiladi);

sport pasporti va/yoki kitobchasi (shaxsiy varaqasi-yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat rasm bilan);

tibbiyot muassasasining shifokori tomonidan sportchining Respublika musobaqasida ishtirok etishiga ruxsat berilganligi;

tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari (bundan buyon matnda **hududiy sport boshqarmalar** deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlangan hamda tegishliligi bo'yicha federatsiyasining hududiy bo'limlari bilan kelishilgan talabnoma (buyurtma) hujjatlari talab etiladi.

26. Yengil atletika sport turi xususiyati hamda musobaqa darajasidan kelib chiqib, musobaqada ishtirok etish uchun quyidagi sport razryadidan kam bo'lmagan talablar qo'yiladi:

- kattalar o'rtasida sportchilar 1 - kattalar razryadiga ega bo'lishlari hamda 5000 metrdan uzoq bo'lgan yurish va yugurish turlarida sportchilarning yoshi 2007-yilda tug'ilgan va undan katta bo'lishlari lozim;

- U23 o'rtasida sportchilar 1 - kattalar razryadiga ega bo'lishlari hamda 5000 metrdan uzoq bo'lgan yurish va yugurish turlarida sportchilarning yoshi 2007-yilda tug'ilgan bo'lishlari lozim;

- U20 o'rtasida sportchilar 2 - kattalar razryadiga ega bo'lishlari hamda 5000 metrdan uzoq bo'lgan yurish va yugurish turlarida sportchilarning yoshi 2007-yilda tug'ilgan bo'lishlari lozim;

- U18 o'rtasida sportchilar 3 - kattalar razryadiga ega bo'lishlari lozim;

- U16 o'rtasida sportchilar 1- o'smirlar razryadiga ega bo'lishlari lozim;

- U14 o'rtasida sportchilar razryadsiz ishtirok etishlari mumkin.

27. Respublika musobaqalarida ishtirok etish uchun talabnoma (buyurtma) yengil atletika musobaqasining xususiyatidan kelib chiqib, musobaqa boshlanishidan 10 kun oldin <https://www.uzathletics-online.uz> elektron tizimi orqali jamoa(lar) vakili tomonidan to'ldirilib o'tkazuvchi tashkilotga yuboriladi.

## 7 bob. Sport kiyimlari uchun talablar

28. Respublika musobaqalarida ishtirok etuvchi sportchilarning sport formasi yengil atletika musobaqalari qoidalariga mos bo'lishi kerak.

29. Musobaqada qatnashish uchun maxsus oyoq kiyim talabiga javob beradigan poyabzal bo'lishi shart.

30. Ishtirok etuvchi qizlar va ayollarga ham maxsus oyoq kiyim talabiga javob beradigan poyabzal kiyishlari talab etiladi.

## **8 bob. Musobaqalarni moliyalashtirish manbalari**

**31.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 27-apreldagi “Terma jamoalar hamda ularning zaxirasini sport musobaqalariga tayyorlashni, shuningdek ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **121-son** qaroriga muvofiq sarf-xarajatlar vazirlikdan, shuningdek, ayrim hollarda federatsiyadan va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.

**32.** Respublika musobaqalarida ishtirok etuvchi sportchilar, trenerlar va boshqa mutaxassislarning ovqatlanishi, yotoqxona, yo‘l haqi xarajatlari safarga yuborgan tashkilotlar (muassasalar) tomonidan qoplanadi.

**33.** Respublika musobaqalarida ishtirok etuvchi hakamlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xarajatlari vazirlik tomonidan qoplanadi. Ayrim hollarda federatsiya va homiylar tomonidan qoplanishi mumkin.

**34.** Respublika musobaqalarining moliyalashtirilishi yuzasidan ushbu Nizomning moliyalashtirish shartlariga vazirlik tomonidan (zarurat hollarda) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

## **9 bob. Musobaqalarda viloyatlar bo‘yicha ishtirokchilar taqsimoti**

**35.** Respublika musobaqalarda ishtirok etuvchi jamoalar tarkibi dasturning har bir turiga 3 nafardan sportchi hamda har bir estafeta turida bir jamoa bilan ishtirok etishi mumkin. Har bir sportchi musobaqa dasturining 2 turida hamda estafeta tur(lar)ida ishtirok etishi mumkin.

**36.** Respublika musobaqalarda ishtirok etuvchi jamoalarga qo‘shimcha o‘rin berish:

- kattalar va U23 o‘rtasida sportchilar sport ustasiga nomzodi;
- U20 o‘rtasida sportchilar 1 - kattalar razryadi;
- U18 o‘rtasida sportchilar 2 - kattalar razryadi;
- U16 o‘rtasida sportchilar 3 - kattalar razryadiga ega bo‘lgan sportchilar jamoa tarkibida ishtirok etishlari mumkin. Bunda jamoa tarkibida bo‘lgan sportchilar har bir tur kvotasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmaydi. Sportchilarning razryad talablari 2024-2025 yillarda bajarilgan (ko‘rsatilgan) bo‘lishi shart.

## **10 bob. Musobaqalarning g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash**

**37.** Respublika musobaqalarning g‘olib va sovrindorlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan I, II va III darajali diplomlar va medallar bilan, zarur hollarda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi. Musobaqalar qoidasiga ko‘ra tenglik aniqlanganda sportchilar o‘z o‘rinlariga mos taqdirlanadilar. Bunda federatsiya

bilan hamkorlikda Yengil atletika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi tomonidan qo'shimcha diplomlarga barcha (kerakli) hujjatlar ilova qilingan holda vazirlikka taqdimnoma kiritiladi. Vazirlik o'z o'rnida o'rganib chiqib kerakli (tenglik evaziga yetmay qolgan) diplomlarni taqdim etadi. Ayrim hollarda federatsiya va homiylar tomonidan g'olib va sovrindorlariga esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishi mumkin.

## 11 bob. Yakuniy natijalar tahlili

38. Federatsiya o'tkazilgan musobaqalar to'g'risida, vazirlik tomonidan tasdiqlangan hisobot shakli bo'yicha musobaqa tugagandan so'ng **uch kun** muddat ichida vazirlikka mablag'larning sarflanishi bo'yicha moliyaviy hamda musobaqaning texnik hisobotlari va yakuniy natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

39. Respublika musobaqalarini adolatli va shaffof holda o'tkazish, Nizom talablariga qat'iy rioya etilishini nazorat qilish federatsiya bilan hamkorlikda Yengil atletika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi tomonidan amalga oshiriladi.

40. Musobaqaning har bir turi bo'yicha g'olib va sovrindorlar amaldagi Jahon Yengil atletikasi qoidalari asosida aniqlanadi. Chempionatlar va Kubok musobaqalarida har qaysi turda eng kamida 3 (uch) nafar sportchi ishtirok etishi shart. Agar biror turda 3 nafar sportchidan kam ishtirokchi qatnashsa ushbu tur ishtirokchilari taqdirlanmaydilar. Jamoaviy birinchilik jamoa vakillari tomonidan qo'lga kiritilgan oltin medallar soni bilan, agar ular soni teng bo'lsa kumush medallar soni bilan, agar ular soni ham teng bo'lsa bronza medallar soni bilan aniqlanadi. Estafeta turida olingan medal bir koeffisient bilan hisoblanadi. Birorta medal jamg'ara olmagan jamoalarga o'rin berish maqsadida quyidagi jadval asosida ochkolar hisoblanadi.

O'rin	1	2	3	4	5	6	7	8
Ochko	8	7	6	5	4	3	2	1

## 12. Yakunlovchi qoidalar

41. Respublika musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun federatsiya yengil atletika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi tomonidan kiritilgan talabnomalar (zayavkalar) to'g'riligi yuzasidan javob beradilar.

42. Musobaqa natijalari bo'yicha berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish shikoyatlar jyurisi (jyuri) tomonidan ko'rib chiqib qaror qabul qilinadi.



43. Musobaqa natijasi bo'yicha shikoyatlar jamoaning vakili tomonidan beriladi.

44. Murojaatlar Jahon yengil atletikasi musobaqa qoidalari talablariga asosan musobaqa natijasi rasman e'lon qilingandan so'ng 30 daqiqa ichida yozma ravishda musobaqa bosh kotibiga taqdim qilinadi.

45. Berilgan murojaatlar federatsiyaning shikoyatlar jyurisi (Jyuri) tomonidan o'rganib chiqilib, ular yuzasidan tegishli qaror belgilanadi.

46. Qabul qilingan qaror natijasi bo'yicha shikoyatlar jyurisi (Jyuri) murojaat qilgan jamoa vakiliga yozma (yoki og'zaki) ravishda javob beriladi.

47. Musobaqaning shikoyatlar jyurisi (Jyuri) murojaatni ko'rib chiqib Jahon yengil atletikasi musobaqa qoidalariga asoslanib qaror qabul qiladi.

48. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

**Yengil atletika bo'yicha Respublika  
oliy sport mahorati maktabi direktori**

**D. Avazov**

**Yengil atletika bo'yicha milliy terma  
jamoasi bosh treneri**

**G. Xubbieva**

**Yengil atletika federatsiyaning  
hakamlar hay'ati rahbari**

**X. Ortiqov**

Yengil atletika bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston  
chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini  
o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga  
1-ilova

**Yengil atletika bo'yicha Respublika musobaqalari  
RO'YXATI**

T/r	Musobaqa nomi	O'tkazish muddati	Bo'lib o'tadigan joyi
<b>I. O'zbekiston chempionati (yopiq inshootda)</b>			
1.	O'smirlar (o'smirlar va o'smir qizlar) (U18) o'rtasida	Yanvar- Fevral	Toshkent shahri, Toshkent viloyati
	<p><b>O'smirlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o (0.914 m - 9.14 m), 2000 m t/o (0.838 m), estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (5 kg), yettikurash: 1-kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (5 kg), balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g'o (0.914 m - 9.14 m), langar cho'p bilan sakrash, 1000 m.</p> <p><b>O'smir qizlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o (0.762 m - 8.50 m), 2000 m t/o (0.762 m), estafetalar 4x200 m, 4x400m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (3 kg), beshkurash: (1 kun) 60m g'o (0.762 m - 8.50 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg), uzunlikka sakrash, 800 m.</p> <p><b>Aralash estafeta 4x400 m (2 o'smirlar, 2 qizlar).</b></p>		
2.	Kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-14) o'rtasida	Fevral-Mart	Qoraqalpog'iston Respublikasi
	<p><b>O'g'il bolalar:</b> 60 m, 300 m, 600 m, 1000 m, 60 m g'o (0.762 m - 8.00 m), estafeta 4x200 m, 3000 m sportcha yurish, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), uch kurash: (1 kun) 60m g'o (0.762 m - 8.00 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg).</p> <p><b>Qiz bolalar:</b> 60 m, 300 m, 600 m, 1000 m, 60 m g'o (0.762 m - 7.50 m), estafeta 4x200 m, 3000 m sportcha yurish, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg), uch kurash (1 kun): 60m g'o (0.762 m - 7.50 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg).</p>		
3.	Kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-16) o'rtasida	Fevral-Mart	Qashqadaryo viloyati
	<p><b>O'g'il bolalar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o (0.838 m - 8.50 m), estafeta 4x200 m, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, balandlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), yettikurash: 1-kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), 2-kun: 60 m g'o (0.838 m - 8.50 m), balandlikka sakrash, 1000 m.</p> <p><b>Qiz bolalar:</b> 60 m, 200m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o (0.762 m - 8.00 m), estafeta 4x200 m, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, balandlikka sakrash, yadro itqitish (3kg), beshkurash: (1 kun) 60 m g'o (0.762m - 8.00m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (3kg), uzunlikka sakrash, 800m.</p>		
4.	Yoshlar (yoshlar va qizlar) (U-20) o'rtasida	Yanvar- Fevral	Andijon viloyati
	<p><b>Yoshlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o (0.991 m - 9.14 m), 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (6 kg), yettikurash: 1 kun: 60 m,</p>		

	uzunlikka sakrash, yadro itqitish (6 kg), balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g <sup>o</sup> /o (0.991m - 9.14 m), langar cho'p bilan sakrash, 1000 m. <b>Qizlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g <sup>o</sup> /o (0.838 m - 8.50 m), 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch xatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (4 kg), beshkurash: (1 kun) 60m g <sup>o</sup> /o (0.838 m - 8.50 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), uzunlikka sakrash, 800 m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 yoshlar, 2 qizlar).</b>		
	U-23 (22 yosh va undan kichik) o'rtasida	Yanvar- Fevral	Toshkent viloyati
5.	<b>Yoshlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g <sup>o</sup> /o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, yettikurash: 1 kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g <sup>o</sup> /o, langar cho'p bilan sakrash, 1000 m. <b>Qizlar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g <sup>o</sup> /o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, beshkurash: 60 m g <sup>o</sup> /o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, uzunlikka sakrash, 800 m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b>		
	Kattalar (erkak va ayollar) (16 yosh va undan kattalar) o'rtasida	Yanvar- Fevral	Andijon viloyati
6.	<b>Erkaklar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g <sup>o</sup> /o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, yettikurash: 1 kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g <sup>o</sup> /o, langar cho'p bilan sakrash, 1000 m. <b>Ayollar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g <sup>o</sup> /o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, beshkurash: 60 m g <sup>o</sup> /o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, uzunlikka sakrash, 800 m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b>		
<b>II. O'zbekiston chempionati (ochiq inshootda)</b>			
	O'smirlar (o'smirlar va o'smir qizlar) (U18) o'rtasida	Mart-April	Toshkent shahri
1.	<b>O'smirlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 110 m g <sup>o</sup> /o (0.914 m - 9.14 m), 400 m g <sup>o</sup> /o (0.838 m), 2000 m t/o (0.838 m), 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (5 kg), disk uloqtirish (1.5kg), bosqon uloqtirish (5kg), nayza uloqtirish (700gr), o'n kurash: 1-kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (5kg), balandlikka sakrash, 400m; 2-kun: 110 m g <sup>o</sup> /o (0.914 m - 9.14 m), disk uloqtirish (1.5 kg), langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish (700 gr), 1500 m. <b>O'smir qizlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 100 m g <sup>o</sup> /o (0.762 m - 8.50 m), 400 m g <sup>o</sup> /o, 2000 m t/o, 5000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (3kg), disk uloqtirish (1 kg), bosqon uloqtirish (3 kg), nayza uloqtirish (500 gr), yettikurash: 1-kun: 100 m g <sup>o</sup> /o (0.762 m - 8.50 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg), 200m; 2-kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish (500 gr), 800 m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 o'smirlar, 2 qizlar).</b>		
	Kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-14) o'rtasida	Sentyabr- Oktyabr	Toshkent viloyati
2.	<b>O'g'il bolalar:</b> 100 m, 200 m, 300 m, 600 m, 1000 m, 110 m g <sup>o</sup> /o (0.762 m - 8.00 m), 3000 m sportcha yurish, estafeta 4x100 m, svedcha estafeta 400x300x200x100m, uzunlikka sakrash, balandlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), to'p uloqtirish (150gr), uch kurash: (1 kun) 110 m g <sup>o</sup> /o (0.762 m - 8.00 m), yadro itqitish (4kg), balandlikka sakrash.		

	<b>Qiz bolalar:</b> 100 m, 200 m, 300 m, 600 m, 1000 m, 100 m g <sup>4</sup> /o (0.762 m - 7.50 m), 3000 m sportcha yurish, estafeta 4x100 m, svedcha estafeta 400x300x200x100m, uzunlikka sakrash, balandlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg), to'p uloqtirish (150gr), uch kurash (1 kun): 100 m g <sup>4</sup> /o (0.762 m - 7.50 m), yadro itqitish (3 kg), balandlikka sakrash.		
3.	Kichik o'smirlar (o'g'il va qiz bolalar) (U-16) o'rtasida	Sentyabr-Oktyabr	Toshkent shahri
	<p><b>O'g'il bolalar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 110 m g<sup>4</sup>/o (0.838 m - 8.50 m), 300 m g<sup>4</sup>/o (0.838 m, 7 to'siq), 5000 m sportcha yurish, estafeta 4x100 m, shvedcha estafeta 800x400x200x100m, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, balandlikka sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (4 kg), nayza uloqtirish (600 gr), bosqon uloqtirish (4 kg), disk uloqtirish (1 kg), sakkiz kurash: 1-kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), 400 m, 2-kun: 110 m g<sup>4</sup>/o (0.838 m - 8.50 m), balandlikka sakrash, nayza uloqtirish (600 gr), 1000m.</p> <p><b>Qiz bolalar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 100 m g<sup>4</sup>/o (0.762 m - 8.00 m), 300 m g<sup>4</sup>/o (0.762 m, 7 to'siq), 5000 m sportcha yurish, estafeta 4x100 m, shvedcha estafeta 800x400x200x100m, uzunlikka sakrash, balandlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (3 kg), nayza uloqtirish (500 gr), bosqon uloqtirish (3 kg), disk uloqtirish (1 kg), yettikurash: 1-kun: 100 m g<sup>4</sup>/o (0.762 m - 8.00 m), balandlikka sakrash, yadro itqitish (3 kg), 200 m; 2-kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish (500 gr), 800 m.</p>		
4.	Yoshlar (yoshlar va qizlar) (U-20) o'rtasida	Aprel-May	Toshkent shahri
	<p><b>Yoshlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 110 m g<sup>4</sup>/o (0.991 m - 9.14 m), 400 m g<sup>4</sup>/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (6 kg), disk uloqtirish (1.750 kg), bosqon uloqtirish (6 kg), nayza uloqtirish (800 gr), o'n kurash: 1-kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish (6 kg), balandlikka sakrash, 400 m; 2-kun: 110 m t/o (0.991 m - 9.14 m), disk uloqtirish (1.750 kg), langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish (800 gr), 1500 m.</p> <p><b>Qizlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 100 m g<sup>4</sup>/o, 400 m g<sup>4</sup>/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish (4 kg), disk uloqtirish (1 kg), bosqon uloqtirish (4 kg), nayza uloqtirish (600 gr), yettikurash: 1-kun: 100 m g<sup>4</sup>/o, balandlikka sakrash, yadro itqitish (4 kg), 200 m; 2-kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish (600 gr), 800 m.</p> <p><b>Aralash estafeta 4x400 m (2 yoshlar, 2 qizlar).</b></p>		
5.	U-23 (22 yosh va undan kichik) o'rtasida	May-Iyun	Toshkent shahri
	<p><b>Yoshlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 110m g<sup>4</sup>/o, 400 m g<sup>4</sup>/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, o'n kurash: 1 kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash, 400 m; 2 kun: 110 m g<sup>4</sup>/o, disk uloqtirish, langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish, 1500 m.</p> <p><b>Qizlar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 100 m g<sup>4</sup>/o, 400 m g<sup>4</sup>/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, yetti kurash: 1 kun: 100 m g<sup>4</sup>/o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, 200 m, 2 kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, 800m.</p> <p><b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b></p>		
6.	Kattalar (erkak va ayollar) (16 yosh va undan kattalar) o'rtasida	Aprel-May	Toshkent shahri
	<p><b>Erkaklar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 110m g<sup>4</sup>/o, 400 m g<sup>4</sup>/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400m, balandlikka</p>		

	sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, o'n kurash: 1 kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash, 400 m; 2 kun: 110 m g'o, disk uloqtirish, langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish, 1500 m. <b>Ayollar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 100 m g'o, 400 m g'o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, yetti kurash: 1 kun: 100 m g'o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, 200 m, 2 kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, 800m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b>				
	Kross bo'yicha (U14, U16, U18, U20 va kattalar)		Fevral-Mart	Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati	
7.	<b>Kattalar</b>	<b>erkaklar</b>	10 kmga yugurish		
		<b>ayollar</b>	5 kmga yugurish		
	<b>U 20</b>	<b>yoshlar</b>	10 kmga yugurish		
		<b>qizlar</b>	5 kmga yugurish		
	<b>U 18</b>	<b>o'smirlar</b>	3 kmga yugurish		
		<b>o'smir qizlar</b>	3 kmga yugurish		
	<b>U 16</b>	<b>o'g'il bolalar</b>	3 kmga yugurish		
		<b>qiz bolalar</b>	3 kmga yugurish		
	<b>U 14</b>	<b>o'g'il bolalar</b>	1 kmga yugurish		
		<b>qiz bolalar</b>	1 kmga yugurish		
	Sportcha yurish (U14, U16, U18, U20 va kattalar)		Fevral-Mart	Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati	
8.	<b>Kattalar</b>	<b>erkaklar</b>	20 kmga sportcha yurish		
		<b>ayollar</b>	20 km sportcha yurish		
	<b>U 20</b>	<b>yoshlar</b>	10 kmga sportcha yurish		
		<b>qizlar</b>	10 kmga sportcha yurish		
	<b>U 18</b>	<b>o'smirlar</b>	10 kmga sportcha yurish		
		<b>o'smir qizlar</b>	5 kmga sportcha yurish		
	<b>U 16</b>	<b>o'g'il bolalar</b>	5 kmga sportcha yurish		
		<b>qiz bolalar</b>	5 kmga sportcha yurish		
	<b>U 14</b>	<b>o'g'il bolalar</b>	3 kmga sportcha yurish		
		<b>qiz bolalar</b>	3 kmga sportcha yurish		
	Marafon va yarim marafon (U20 va kattalar)		April	Toshkent shahri	
9.	<b>Kattalar</b>	<b>erkaklar</b>	Marafon, yarimmarafon		
		<b>ayollar</b>	Marafon, yarimmarafon		
	<b>U 20</b>	<b>yoshlar</b>	Marafon, yarimmarafon		

	qizlar	Marafon, yarimmarafon		
10	Shossedada yugurish		Aprel	Toshkent shahri
	Kattalar	erkaklar	10 km, 5km	
		ayollar	10 km, 5km	
	U 20	yoshlar	10 km, 5km	
		qizlar	10 km, 5km	
	U 18	o'smirlar	10 km, 5km	
		o'smir qizlar	10 km, 5km	
	U16	o'g'il bolalar	5km	
		qiz bolalar	5km	
	U14	o'g'il bolalar	3km	
qiz bolalar		3km		
<b>III. O'zbekiston kubogi (yopiq inshootda)</b>				
1.	Kattalar (erkaklar va ayollar)		Yanvar-Fevral	Toshkent shahri, Toshkent viloyati
	<p><b>Erkaklar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, yettikurash: 1 kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g'o, langar cho'p bilan sakrash, 1000 m.</p> <p><b>Ayollar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, beshkurash: 60 m g'o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, uzunlikka sakrash, 800 m.</p> <p><b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b></p>			
2.	U-23 (22 yosh va undan kichik) o'rtasida		Yanvar-Fevral	Toshkent shahri
	<p><b>Erkaklar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, yettikurash: 1 kun: 60 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash; 2 kun: 60 m g'o, langar cho'p bilan sakrash, 1000 m.</p> <p><b>Ayollar:</b> 60 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 3000 m, 60 m g'o, 3000 m t/o, estafetalar 4x200 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, beshkurash: 60 m g'o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, uzunlikka sakrash, 800 m.</p> <p><b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b></p>			
<b>IV. O'zbekiston kubogi (ochiq inshootda)</b>				
3.	Kattalar (erkaklar va ayollar)		Sentyabr-Oktyabr	Toshkent shahri
	<p><b>Erkaklar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 110m g'o, 400 m g'o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, o'n kurash: 1 kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash, 400 m; 2 kun: 110 m g'o, disk uloqtirish, langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish, 1500 m.</p> <p><b>Ayollar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 100 m g'o, 400 m g'o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk</p>			

	uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, yetti kurash: 1 kun: 100 m g'/o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, 200 m, 2 kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, 800m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b>	
	U-23 (22 yosh va undan kichik) o'rtasida	Sentyabr-Oktyabr Toshkent shahri
4.	<p><b>Erkaklar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 110m g'/o, 400 m g'/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, o'n kurash: 1 kun: 100 m, uzunlikka sakrash, yadro itqitish, balandlikka sakrash, 400 m; 2 kun: 110 m g'/o, disk uloqtirish, langar cho'p bilan sakrash, nayza uloqtirish, 1500 m.</p> <p><b>Ayollar:</b> 100 m, 200 m, 400 m, 800 m, 1500 m, 5000 m, 10000 m, 100 m g'/o, 400 m g'/o, 3000 m t/o, 10000 m sportcha yurish, estafetalar 4x100 m, 4x400 m, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch hatlab sakrash, langar cho'p bilan sakrash, yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish, nayza uloqtirish, yetti kurash: 1 kun: 100 m g'/o, balandlikka sakrash, yadro itqitish, 200 m, 2 kun: uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, 800m. <b>Aralash estafeta 4x400 m (2 erkaklar, 2 ayollar).</b></p>	

Yengil atletika bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston  
chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini  
o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga  
2-ilova

**2025-yil davomida yengil atletika bo'yicha Respublika hududida o'tkazilishi  
rejalashtirilgan Respublika musobaqalari  
DASTURI**

<b>Yopiq inshootdagi musobaqalar</b>	
<b>1-kun</b>	
09:00-13:00	Hududlardan keladigan jamoalarni kutib olish va joylashtirish
14:00-17:00	Mandat komissiyasi faoliyati
17:00-18:30	Jamoa vakillari va hakamlar yig'ilishi
<b>2-kun</b>	
09:00-12:00	Ertalabki musobaqalar
14:00-14:30	Musobaqaning ochilish marosimi
14:45- 18:30	Kechki musobaqalar
<b>3-kun</b>	
09:00-12:00	Ertalabki musobaqalar
13:30- 17:30	Kechki musobaqalar
17:30-18:30	Taqdirlash marosimi
<b>4-kun</b>	
09:00-12:00	Ertalabki musobaqalar
13:30- 17:30	Kechki musobaqalar
17:30-18:30	Taqdirlash marosimi
<b>Ochiq inshoot (stadion)dagi musobaqalar</b>	
<b>1-kun</b>	
09:00-13:00	Hududlardan keladigan jamoalarni kutib olish va joylashtirish
14:00-17:00	Mandat komissiyasi faoliyati
17:00-18:30	Jamoa vakillari va hakamlar yig'ilishi
<b>2-kun</b>	
08:00-11:00	Ertalabki musobaqalar
16:00-16:30	Musobaqaning ochilish marosimi
17:00- 21:00	Kechki musobaqalar
<b>3-kun</b>	
08:00-11:00	Ertalabki musobaqalar
17:00- 21:00	Kechki musobaqalar
21:00-22:00	Taqdirlash marosimi
<b>4-kun</b>	
08:00-11:00	Ertalabki musobaqalar
17:00- 21:00	Kechki musobaqalar
21:00-22:00	Taqdirlash marosimi



Yengil atletika bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston  
chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini  
o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga  
3-ilova

**Hakamlar hay'ati soni**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Soni</b>
1.	Bosh hakam (Musobaqa direktori)	1
2.	Bosh hakam o'rinbosari (Texnik delegat)	1
3.	Sport maydonchasi va snaryadlarni tayyorlash (Texnik menejer)	6
4.	Referilar	7
5.	Bosh kotib (Texnik ma'lumot markazi rahbari)	1
6.	Bosh kotib o'rinbosari (Texnik ma'lumot markazi xodimlari)	4
7.	Ro'yxatdan o'tkazuvchi hakamlar	5
	Yugurish turlari uchun masofadagi hakamlar	18
	Start beruvchi brigada	4
	Texnik turlar (balandlikka va langar cho'p bilan sakrashlar)	7
	Texnik turlar (uch hatlab va uzunlikka sakrashlar)	7
	Texnik turlar (bosqon va disk uloqtirish)	7
	Texnik turlar (yadro itqitish va nayza uloqtirish)	7
	Fotofinish	3
	Marra hakamlari va xronometristlar	8
	Shamol tezligini o'lchovchi hakamlar	2
8.	Marra chizig'idagi va aylana bo'yicha hisoblovchi hakamlar	5
9.	Ma'lumot beruvchi hakam (tadbir suhandoni)	1
10.	Taqdirlashni o'tkazuvchi hakamlar	3
11.	Shifokor	2
12.	Kompyuterchi	1
<b>Jami:</b>		<b>100</b>

Yengil atletika bo'yicha 2025-yilda O'zbekiston  
chempionati va O'zbekiston kubogi musobaqalarini  
o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga  
4-ilova

**“KELISHILDI”**  
O'zbekiston yengil atletika  
federatsiyasining  
\_\_\_\_\_ bo'limi ijrochi  
direktori  
\_\_\_\_\_ F.I.Sh.  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2025-yil

**“TASDIQLAYMAN”**  
\_\_\_\_\_ viloyati  
sport boshqarmasi boshlig'i  
\_\_\_\_\_ F.I.Sh.  
“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2025-yil

\_\_\_\_\_  
(hudud nomi, sport turi, musobaqa nomi)

**T A L A B N O M A**

№	Sportchi F.I.SH.	Tug'ilgan yii	Jinsi	Sport razr.	Ko'krak raqami	Ishtirok etadigan turi	Taqdim etilgan natija	Trener F.I.SH.	Shifokor ruxsati
1									
2									
...									

**Jamoa vakili**

Tel: +998/97-000-00-00

\_\_\_\_\_ Imzo

\_\_\_\_\_ (F I Sh)

**Bosh trener**

Tel: +998/97-000-00-00

\_\_\_\_\_ Imzo

\_\_\_\_\_ (F I Sh)

**Shifokor**

Tel: +998/97-000-00-00

\_\_\_\_\_ Imzo

\_\_\_\_\_ (F I Sh)

Musobaqada \_\_\_\_\_ nafar sportchi ishtirok etishga ruxsat etildi.